


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMİDAGI MILLİY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



A.Mansurov

2024 yil “30” avgust

Ro'yxatga olindi: № BD 60211000-1.13

TINGLAB TAHLIL QILISH
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60210100- Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi)

Toshkent 2024

TINGLAB TAHLIL QILISH FANINING O'QUV DASTURI

Fan/modul kodi TTQ1205		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS-Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Tinglab tahlil qilish		60	90
I. Fanning mazmuni				
Mazkur fanning maqsadi - soha bo'yicha mutaxassis tayyorlash, eshittirilgan turli tovush signalari hamda audio mahsulot(fonogrammalar) lardagi chastotaviy, dinamik, turli vaqtli va modulatsion o'zgarishlarni eshitib aniqlay bilish va yozuv paytida sodir etilgan yoki yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni eshitib farqlay olish malakalarini hosil qilish, ularda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni professional nuqtai nazardan ajrata bilish va baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.				
Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu fan bo'yicha talabalar quyidagi yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlari zarur: Audio mahsulotning parametrlar bo'yicha tahliliy nazariysi haqidagi bilimlar; Turli xil janrdagi asarlar tahlilining alohida xususiyatlari haqida; Tinglab tahlil qilish fani talablariga binoan turli xil janrdagi asarlarning tahliliy-testlariga javoblar; Turli xil davriy – uslubiy va ma'lum sifatdagi audio mahsulotlarini tahlil qilish.				
II. Asosiy qism (yakka mashg'ulotlar) (1-semestr)				
1-Mavzu: Fonogrammalar sisatini baholash me'zonlari va nazorat turlari				
2-Mavzu: Ekvalizatsiya orqali fonogrammani baholash va eshitishni rivojlantirish				
3-Mavzu: Fonogrammani baholash. Shovqinlar asosida turli chastotalarni qo'shish va kesish orqali eshitishni rivojlantirish				
4-Mavzu: Tahlil va eshitishni fonogramma asosidagi chastotaviy diapazonlar o'zgartirishlar bo'yicha rivojlantirish				
5-6 Mavzu: Tahlil va eshitishni amplitudaviy o'zgarishlar asosida rivojlantirish				
7-8 Mavzu: Tahlil va eshitishni buzilishlar miqdorini o'zgartirish asosida rivojlantirish				
Oraliq nazorat				
O'tilgan mavzular bo'yicha talabalardan turli audio signallar va				

fonogrammalarini tinglab tahlil eta olishlari orqali oraliq nazorat baholanadi.

9-10 Mavzu: Tahlil va eshitishni kompressordan foydalanish asosida rivojlantirish

11-12 Mavzu: Tahlil va eshitishni ekvalizatsiyani o'zgartirish asosida rivojlantirish

13-14 Mavzu: Tahlil va eshitishni stereofonik o'zgartirishlar orqali rivojlantirish

15-Mavzu: Tahlil va eshitishni kechikishlar va reverberatsiyani o'zgartish orqali rivojlantirish

Yakuniy nazorat

1-semestrda o'tilgan mavzular bo'yicha talabardan turli audio signallar va fonogrammalarini tinglab tahlil eta olishlari orqali yakuniy nazorat baholanadi.

16-Mavzu: Suxandon ovoz yozuvi, vokal va fortepiano ovoz yozuvi tahlili

17-Mavzu: Obektiv va sub'ektiv nazorat

18-Mavzu: Vokal duetlari ovoz yozuvlari tahlili

19-Mavzu: Yakkaxon cholg'ularning ovoz yozuvlari tahlili

20-Mavzu: Triolar ovoz yozuvi tahlili

21-Mavzu: Kvartetlar ovoz yozuvi tahlili

22-Mavzu: Kamer orkestrlari ovoz yozuvi tahlili

Oraliq nazorat

O'tilgan mavzular bo'yicha talabardan turli audio signallar va fonogrammalarini tinglab tahlil eta olishlari orqali oraliq nazorat baholanadi.

23-24-Mavzu: O'zbek xalq cholg'ulari orkestri partituralari asosidagi ovoz yozuvi tahlili

25-26-Mavzu: Estrada simfonik orkestrlari ovoz yozuvi tahlili

27-28-Mavzu: Simfonik orkestrlari partituralari asosida ovoz yozuvi tahlili

29-30Mavzu: Operalar, oratoryalar ovoz yozuvi tahlili

Yakuniy nazorat

2-semestrda o'tilgan mavzular bo'yicha talabardan turli audio signallar va fonogrammalarini tinglab tahlil eta olishlari orqali yakuniy nazorat baholanadi.

III. Yakka mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha

ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha yakka mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlar har bir mavzu yuzasidan ovoz yozish o'quv ishlab chiqarish studiyasida takroriy tajribalar (audio-video texnika anjomlari vositasida), orqali sinab ko'rinishi yaxshi natijalar beradi.

Yakka amaliy-mashq mashg'ulotlari ayrim turli zamonaviy dasturlar vositasida o'z ijodiy yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Musiqiy ijro audio yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib tegishli formatlarda saqlash va qayta ishlash vazifalari ham qo'yiladi.

Yakka mashg'ulotlar turli shakllar bilan sinovlardan o'tkaziladi. mazkur mashg'ulotlar fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarini mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular.

- 1 Tinglab tahlil qilish fanining ixtisoslik fanlarini rivojlantirishdagi o'rni
2. Tahlil parametrlari, ularning ovoz yozish va uzatishda ularning o'rni
3. Makoniylig parametrining ovoz yozuvidagi o'rni
4. Tiniqlik, tembr va musiqiy muvozanat parametrlarning ovoz yozuvi jarayonidagi ahamiyati
5. Shovqinlar va ularning ovoz yozuvlariga ta'siri
6. Turli xalaqtilar va ularni bartaraf etish yo'llari
7. Ovoz yozuvini ob'ektiv baholashdagi qo'yiladigan talablar
8. Ovoz yozuvini sub'ektiv baholashdagi qo'yiladigan talablar
9. Tinglab tahlil qilishda eshitish monitorlari to'g'ri foydalanish
10. Monitorlarni to'g'ri joylashtirishning tahlildagi ahamiyati.
- 11.O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tahlilining o'ziga xosligi
- 12.Klassik cholg'u va vocal asarlari tahlilida musiqiy muvozanat.

Mustaqil ta'lifni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lif resurslaridan, ta'lif muassasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbiy mahoratni rivojlantirish va takaommillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

3. V. Ta'lif natijalari /Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- turli chastotaviy, dinamik, vaqtli, modulatsion o'zgarishlarni eshitib aniqlay olish va uning sabalarini;
- orkestr tafakkuri va harakatlar ifodaviyligini rivojlantirish bo'yicha ishlash shakllarini;
- yozish sifatini baholashni;
- ovoz yozuvi parametrlarini *bilishi kerak*;
- turli xil fonogrammalarni ob'ektiv va subyektiv baholash;

	<p>tahlili parametrlari bo'yicha tinglanayotgan fonogrammani to'g'ri tahlil qilish ko'nigmalariga ega bo'lishi kerak,</p> <ul style="list-style-type: none"> • ovoz yozuvini amalga oshirishda parametrlarni saqlay bilish; • turli cholg'ular guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilish; • katta jamoalar ovoz yozuvini tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ijodiy taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ijodiy ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Монтаж фонограмм акустической музыки (1 часть)// Журнал "Звукорежиссёр" №5.2011. 2. Севашко А.В. - Звукорежиссура и запись фонограмм. Профессиональное руководство.-М.:Альтекс-А,2007.-432 с. 3. А.В. Бургов. Теория фонограмм. М.: "Искусство", 1984.-302 с. 4. А.В.Хмыров Основы акустики. Учебное пособие. Т.,2019. 5. В.Гущин, Р.Умарходжаев, М.Насыров Акустические основы звукорежиссуры о'quv qo'llanma T., 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-488 b.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.
- 4.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
- 5.Ш.Гафурова Компьютерные музыкальные технологии О'quv qo'llanma T.,

2007

- 6.Гущин В.Н., Насыров М.З., Оборудование студий и системы звукозаписи. Часть I. Т., 2004.
- 7.Тим Кинтцель Руководство программиста по работе со звуком.СПб, ДМК, 2000.
- 8.Е.Медведев, В.Трусова Реальность вертуального звука.Вертуальная аудиостудия нового поколения SAW STUDIO. Звуковая лаборатория NUENDO. Маршрутизация объектов микширование SAMPLITUDE и PRODUSER. СПб., «BXV-Peterburg» Санкт-Петербург, 2002.
- 9.А.Борисов. Инцикlopedia обработки звука на профессиональном компьютере М., 2004.

Axborot manbalari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://konservatoriya.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. www.gov.uz
6. www.aza.uz
7. www.zvukorejisser.ru
8. <http://bookzz.org>
9. <http://booksee.org>
10. <http://millionsbooks.org>
11. <http://designingsound.org>
12. <http://www.udemy.com>
13. <http://www.universarium.org>

7. O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti Kengashida muhokama etilgan va tasdiqlangan.
2024 yil "30" ~~aqsaqal~~ dagi 1-sonli bayonnomalar
8. Fan/modul uchun mas'ullar:
B.Yuldashev-O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI katta o'qituvchisi
9. Taqrizchilar:
Sh.Gafurova - O'zDK professori, texnika fanlari nomzodi
I.Boltabaev - O'MTRK "O'zbekiston" teleradiokanalini bosh ovoz rejissyori